Arrali jin ishchi kamerasining tuzilishi, uning ayniqsa ish unumdorligiga, sarf bo'ladigan elektr energiyasiga va chiqariladigan mahsulotlarning sifatiga katta ta'sir qiladi.

Ishchi kamerasiga quyidagi texnologik talablar qo'yiladi: uning qismlari tolada nuqsonlar paydo qilmasligi va chigitlarni shikastlantirmasligi, kameraning tuzilishi xom ashyo valigining aylanishiga mumkin qadar to'sqinlik qilmasligi kerak. Ishchi kameraga chigitli paxtaning kirib kelishiga, tola va chigitlarning chiqishiga to'siqlar mumkin qadar kam bo'lishi kerak.

Paxta tolasini paxta tozalash zavodlarida ishlab chiqarish mahsulotlarini asosiysi deb xisoblanadi va uni sifati asosan ishlab chiqarish mashinalarining xolatiga va ishlab chiqarish texnologiyasiga bog'liqdir. Ishlab chiqarish mashinalariga qo'yilgan talablarga javob bermasligi tolani shikastlanishiga xamda uzulishiga, tolaning kamayishiga, mexanik shikastlanishiga, shuningdek mustahkamligini kamayishiga, tolalarni nuqsonlarni oshishiga, toladagi momiqning ko'payishiga olib keladi.

Jin mashinasi paxta tozalash zavodlarining asosiy uskunasini deb xisoblanib, uning ishchi organlarining yuzalari tola sifatiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tolani chigitdan ajratish jarayonida chigitli paxta arralisslidir, kolosnikli panjara hamda chigit tarog'i bilan aloqada bo'ladi. Chigitli paxtani arra tashlari xamda kolosniklarni o'tkir qirralari bilan ish qismida o'zaro aloqasi tolalarni shikastlanishiga olib keladi. SHu bilan birgalikda ishchi organlarning yuzalari jadal eyiladi va natijada kolosniklarni ish muddati 4-6 oyni tashkil etadi.

Jinni ishchi qismida yuqori darajali solishtirma bosim ($4,9\text{kN/m}^2$ dan yuqori) va nisbiy tezliklarni miqdori 12 m/s ni tashkil etadi. 17 Kolosniklar

SCH15 markali kulrang choʻyandan tayyorlanadi va ogʻir ish sharoiti boʻlgani uchun nafaqat ularni jadal eyilishiga balki ishlov berilayotgan tolani ham shkastlanishiga olib keladi. Kolosniklarni eyilishi ularni ishchi qismidagi tirqishni oshishiga olib keladi va natijada jinlash texnologik jarayoni buzuladi. Uch oy ishlaganidan soʻng kolosnik panjarasidagi 70-80% kolosniklar orasidagi tirqishlar ruxsat etilgan miqdordan oshib ketadi.

Shuning uchun kolosniklarni ish muddati chegaralanadi va ular almashtiriladi.

Boshqa tomondan mavjud kolosniklarni tayorlash texnologik jarayoni talab etilgan aniqlik darajasini ta'minlashga imkon bermidi.

Quymakorlikssaxida quyma yoʻli bilan olingan tayyorlamalarni, ishlab chiqarishdagi kolosniklarni taxlili asosida 44% gacha quymalar qiyshayish qismidagi oʻlchamlarning oʻzgarishi, xamda turli hil nuqsonlar tufayli yaroqsiz xolatga keladi.

Mexaniq ishlov berilgandan soʻng yaroqli detallarni soni 42%ni tashkil etadi. Bular asosan kolosnikni qiyshayish natijasida mexaniq ishlov berishga qoldirilgan quyumning etmasligi xamda texnologik bazalarni notoʻgʻri belgilanishi natijasida, xattoki yaroqli kolosniklardan yigʻilgan kolosnik panjaradagi kolosniklar orasidagi tirqishlar ish qismidan katta miqdorda oʻzgaradi. Natijada arrali disqlarni 30%ga yaqini kolosniklarga tegadi va oʻz navbatida tolani shikastlanishiga xamda kolosniklarni emirilishiga olib keladi.

Ma'lumki chigitli paxta jinlash jarayonida tolani chigitdan ajratish davrida, kolosnik panjarani ishchi qismida ogʻir xamda murakkab sharoitga tushadi.

Tolani chigitdan ajratish jarayonida chigit kolosniklarni yuzasiga bosilib, uning xarakati sekinlashadi, va natijasida kolosnikni ishchi qismida, kolosnikli panjaradan ustki qismida chigitli paxtani zichlangan massasi hosil boʻladi. Bu esa ishchi valikni sekinlashishiga olib keladi va natijada jinni ish unumdorligi kamayadi. Jinni ish unumdorligini oshirish uchun ishchi valikni aylanishini majburiy oshirish qurilmalari yaratilgan. Lekin bu qurilmalar amaliyotda tadbqiq

qilinmagan, chunki majburiy aylantirish jarayonida tolalar buralib qo'shimcha tugunlar paydo bo'ladi.

Uzulishlar shuni ko'rsatdiki xomashyo valigini aylanish tezligini oshirishni birinchi tomondan arrali jinni ish unumdorligini oshishiga olib keladi, lekin ikkinchi tomondan tolaning shikastlanishiga xam olib keladi

Xomashyoni zichligini oshishi jinlash zonasida yuqori darajali kuchlanishlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shikastlangan tolalarni ko'payishiga olib keladi.

Arra tishini xarakat yo'nalishi bo'yicha kolosniklarga ta'sir qiluvchi kuchlarni o'lchash quyidagilarni ko'rsatadi

Xomashyo valigini zichligi oshgan sari kolosnikga ta'sir qilayotgan kuchlar xam oshdi va eng kichik zichlikda 25N, o'rtacha zichlikda 42N ni va eng katta zichlikda 60N ni tashkil etdi. Bu etarli darajada kuchlanish xisoblanadi (alohida tolani mustaxkamligini xisobga olgan xolda) va arra tishlarini, kolosniklarni ish yuzalarini sifatini bir oz yomonlashishiga, xamda paxta tolasini jiddiy shikastlanishga ayrim xollarda esa emirilishiga xam olib keladi G.I.Boldinskiy, va B.A.Levkovich

Yulingan tola ko'rinishidagi nuqsonlarni asosiy sabablardan biri bu kolosnik bilan arra diskidagi masofaning kichikligi ya'ni arrani kolosniklar orasidagi tirqishni markazida joymasligidir.

Avtorlar bir tish ilib olgan tolalar sonini xisobga olgan xolda kolosniklar orasidagi tirqishni nazariya tomonidan xisoblangan miqdorini keltirishgan. Lekin amaliyotda tolalar soni ko'proq bo'lishi mumkin, chunki tirqishda bir vaqtni ichida bir nechta tishlar bilan ilib olingan tolalarni xisobga olgan xolda asoslangan deb xisoblansa bo'ladi. R.G.Maxkamov bu jarayonni amaliy tomonlarini xisobga olgan xolda arra bilan kolosnikni orasidagi tirqishning miqdori kichik bo'lganda tolalar tirqishga arrani deformatsiyalanishini xisobiga kiradi.

Natijada kolosnikka normal ta'sir qilayotgan kuch oshadi va uni miqdori arrali tig'lariga bog'liq bo'ladi, yoki arraning qolipiga bog'liq bo'ladi va nixoyat

kolosnik panjarasini xamda kolosniklar orasidagi tirqishga hamda ishchi kamerada tola va iflosliklarni tiqilishi mashinani to'xtatishga olib keladi va ishlab chiqarishga katta zarar etkazadi.

Bu inkorlar umumiy inkorlarni 90% ni tashkil etadi va ishlab chiqarishda katta vaqtni yo'qolishiga olib keladi, hamda jinni o'rta ish unumdorligini kamaytiradi.

Aniqlangan masalan texnologik inkorlarni jadalligi paxtani namligini 8% dan 20%ga oshganda 10 barobariga oshadi

Hisob kitob ishlar shuni ko'rsatdiki jinlashdagi chigitli paxtani namligi 8% dan 11% ga ohsa elektr energiyasi sarfi taxminan 20% ga oshadi. SHuning uchun mashinalarni ishchi organlarini loyixalashda ularni ishchi yuzalarining sifatini yuqori darajadagi namlikdagi chigitli paxta bilan ishqalanish kuchini xisobga olish zarur.

SHuning uchun arrali jinni ishchi yuzalarini sifatini paxta tolasini sifatiga ta'sirini o'rganib, jinni ishchi kamerasini ishchi yuzasini g'adir – budurligi 6-7 sinf oralig'ida va kolosniklarning yon tomonini yuzasini g'adir – budurligi 7-8 sinf oralig'ida bo'lishi tavsiya etilgan.

Tajribalar natijalari bo'yicha kolosniklarni yon tomonini ishlab moslanishini jadalligi kolosniklar bilan arralar orasidagi tirqishga bog'liq. Tirqish esa o'z navbatida arrani o'q bo'ylab tebsinishiga kolosnik panjarasi bilan arra validagi arralarni yig'ilish aniqligiga, arrali valni deformatsiyasiga va boshqalarga bog'liqdir SHu bilan birgalikda agar kolosniklarni yon tomonlari faqat paxta tolasini bilan tutashuvda bo'lsa eyilish uzoq davr ichida bir teks o'tadi. Lekin kolosniklarni yon tomoni bilan arralar orasiga bevosita tutashuv bo'lsa, tutashuvdagi kolosniklar tez jadal eyiladi. Bu xol asosan arralar kolosniklar orasining markazida joylashmaganda sodir bo'ladi.

Arrani kolosniklar orasidagi tirqishni markazida joylashmasligini sabablaridan asosini kolosnik panjarasini kamchiligi xisoblanadi.

Eshonov M. Tomonidan kolosnik yuzasiga tolali chigitni bosimini kamaytirish bo'yicha o'tkazilgan izlanishlar natijasida turli xil kolosniklar konstruksiyalari o'rganib chiqilgan.

Tajribalar laboratoriya jinida o'tkazilgan va quyidagi kamchiliklar aniqlangan. Kolosniklarni yon tomonida bo'rtib chiqqan kolosniklarda chigitlarni shikastlanishi oshgan. O'rta qismida qovurg'asi bo'lgan kolosniklarda tola bilan chigitlarni sifatini kamayishi kuzatilgan.

Lekin bu izlanishlarda xam arrani kolosniklar orasidagi tirqishning o'rtasida joylashishi masalalari ko'rilmagan.

Bizlarda va chet elda ishlab chiqariladigan kolosniklar asosan cho'yan materialidan tayyorlanadi. Chunki arrani cho'yan kolosnikga tegishi uchqun xosil bo'lishiga olib kelmaydi. Ular qumdan tayyorlangan qoliblarga quyish yo'li bilan olinadi va quyish jarayonida kolosnikning ishchi qismi oqartiriladi, ya'ni shu qismini qattiqligini oshirish maqsadida oq cho'yanga aylantiriladi.

Kolosnik uzun qiyshiq, xam murakkab shaklli detal bo'lganligi uchun, sovush jarayonida ichki kuchlanishlar sodir bo'ladi va ular kolosniklar shaklini o'zgartirishga olib keladi.

Uning natijasida mexanik ishlov berish jarayonida 40-45% kolosniklar yaroqsiz deb xisoblanadi va qayta ishlovga yuboriladi

Kolosniklarga mexanik ishlov berish jarayonini kamchiliklari tufayli 30% gacha kolosniklar kolosnik panjarasini yig'ish jarayonida yaroqsiz deb xisoblanadi va yig'ish jarayoni ko'p mexnatni talab etadi. Kolosniklarni eyilishiga chidamliligiga cho'yan kolosniklarni eyilish chidamliligi past bo'lganligi uchun ularni ish muddati 2-6 oyni tashkil etadi

Kolosniklar sarfi 1 yilda 2-3 komplektni tashki etadi. Jin kolosnik kolosnik panjarasini yig'ishdagi mexnat sarfini kamaytirish uchun to'la o'zaro almashinuvchanlik qoyidasi bo'yicha kolosnik panjarasini yig'ish, xamda kolosniklarni tayyorlash texnologik jarayonlarga bag'ishlangan savollar ko'rib chiqilgan.

Xamda xisoblash sxemasi tuzulib kolosnik panjarasini o'lcham zanjirlari xisoblangan.

O'zaro to'la almashinuvchanlik qoyidasini tadbiq etish D.A.Kotov, P.N.Tyutin va R.YU.Melamedov kolosnik panjaralari xamda yon tomonlarini ishlov berishda bir xil asoslash usulidan foydalanishni tavsiya etdilar.

Bu ishlar natijalari DP-130 jiniga tavsiya etiladi. SHunday qilib hozirgi vaqtgacha kolosnik panjarasini ish muddatini oshirish muammosi xamda paxta tolasini sfatini oshirish rezerflari jin kolosnik panjarasini takomillashtirish yo'llari xisobiga amalga oshirilmagan.

Jinlash jarayonida yuqoridagi bo'limlarda ko'rsatilgandek ikki xil xolat uchrashi mumkin:

1 – Arrali diskni kolosnik panjarasidagi kolosniklar orasidagi tirqishning o'rtasida joylashishi;


2 – Arrali disk kolosniklar orasidagi tirqishni u yoki bu tomonida joylashishi.

Birinchi holda jinlash jarayonida tolalar bir tekis tortilib, ularga bir tekis kuchlar ta'sir qiladi. Ikkinchi holda arrali disk paxta tolalarini yaqinroq joylashgan kolosnikka ezib jarohatlanishiga olib keladi. Tolani jarohatlanishi bu holda asosan arra tomonidan tolaga ta'sir qilayotgan tomoniga bog'liq.

O'tkazilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki kolosniklarning ko'pchiligi ularga arrani tegishi natijasida eyilgan. Arra tegmagan kolosniklar deyarli uchramaydi. Arraning ishlashi jarayonida tolani shkastlanishi asosan arrani tishi bilan kolosnikni o'tkir qirasi orasida kutiladi. Undan tashqari arrani tekislikdan og'ishi u yoki bu kolosnikka tegishiga olib kelishi mumkin..

2.6. Mashina va detallarni yig'ish va sochishda ishlatiladigan asbob uskunalar ishlashi.

Xozirgi kunda ishlatilayotgan elektr uskunolari, ya'ni gayka yoki vint qotirgichlar (2.19-rasm) eng zamonaviy uskunlardan biridir.



2.19-rasm. Pnevmatik gayka qotirgich.

1-vint kallagi, 2- qotirish kallagi, 3-ishchi tanasi, 4-dastagi.

Ishlab chiqarilayotgan xar bir gayka qotirgichlarni ishlatish uchun qo'llanmalari bo'ladi. Qo'llanmada barcha ma'lumotlar chop etish vaqtida eng yangi ma'lumotlar bilan to'ldirilgan bo'ladi. Bu qo'llanmada ishlab chiqaruvchi bilan kiritilgan ba'zi bir algortimlari ko'rsatilmagan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga tasvir va rasmlar orginal mahsulotdan farqlanishi mumkin. Elektouskunalar bilan ishlashdan avval qo'llanma diqqat bilan tanishib chiqiladi va unga rioya qilish uskunani ishlatish vaqtida sodir bo'ladigan har-xil jarohatlardan asraydi va uskunani ishlash vaqtini uzaytiradi.

Gayka qotirgichlar (2.20-rasm) elektr energiya sarfi, kallagini o'lchami, aylanish momenti va qayerda ishlatilishiga qarab xar xil rusumlarga bo'linadi.

Yelektrouskuna shurupni burab kirgizish va qaytib burab chiqarish uchun mo'ljallangan, shu bilan birga taxtalarda, temirda keramikada va polimer materiallarda teshik ochishda ishlatiladi.

A 1201 va A 1202 rusumli gayka qotirgichlarni texnik ko'rsatkichi.

2.2-jadval.

Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Rusumi	
		A 1201	A 1202
Akkumlyator batareyasi sig'imi	Ach	1.2	1.2
Kuchlanish		12,0	12,0
Aylanish momenti	Nm	26	30
Aylanish holati pog'onalari		15+1	15+1
Yerkin holati	min	0-550	0-350/0-1100
Zaryadka vaqti	soat	3-5	3-5
Tez siquvchi patron	mm	10 1-muft	10 1-muft
Akkumlyator batareyalar soni	sht	1	2
Parmalash diametri	mm		
Po'lat		6	10
Yog'och		20	26
Og'irligi	kg	1.4	1.4


Ayni vaqtda ishlatilayotgan gayka qotirgichlarni akkumlyatorlari quvvati 5-6 kunga yetadi.

Quvvatlanuvchi batareyani ko'proq xizmat qilishi uchun uni butunlay quvvati tugagan holda zaryadkaga quyish kerak. Quvvatlantirgichda quvvatlanuvchi batareya oxirigacha to'lguncha turish lozim.

Gayka qotirgichlarda qo'ndirmalarni almashtirishda uskuna ishlab ketmasligi uchun avval quvvatlanuvchi batareyani uskunadan olib tashlanadi. Uskunani aylantirib kerakli diametrdagi o'lchamni patronni aylantirib teshik ochib olinadi. Gayka qotirgichlarga qo'ndirmalarni o'rnatib qo'l bilan muftani tezqisuvchi patronni qo'ndirma joylashgungacha teskari aylantiriladi.

Gaykaqotirgichni ishlatish uchun 4 tugmachasi bosib ushlab turiladi, o'chirish uchun esa 4 tugmachasi qo'yib yuboriladi.

Gaykaqotirgichlar potronining aylanishlar sonini o‘chirib yoqadigan tugma 4 yordamida to‘g‘irlash mumkin. Tugma 4ni sekin bossangiz patron aylanishlar soni kam bo‘ladi, tugmani qancha qattiq bossangiz patron aylanishlar soni shuncha ko‘payadi.



2.20-rasm. A 1210 rusumli gayka qotirgich.

1. Gaykali qisuvchi patron, 2-Kallakni aylanish tezligini o‘zgartirish tugmasi, 3- aylanish momentini o‘rnatish joyi, 4- yoqish tugmasi, 5-aylanish yo‘nalishini o‘zgartirish tugmasi, 6-quvvatlantiruvchi batareya, 7- quvvatlanuvchi batareyani o‘rnatish joyi, 8-Ushlash joyi (dastag), 9-yoritish uchun chiroq.

3. MEHNAT MYHOFAZASI VA EKALOGIYA

3.1 DPZ-180 arralijinning xavfsizlik darajasini aniqlash.

Jinlar ishchi organlarining konstruksiyasiga ko'ra arrali va g'o'lali jinlarga bo'linadi. Ararli jinlar o'rta tolali chigitli paxta uchun foydalanilsa, g'o'lali jinlar uzun tolali chigitli paxta uchun foydalaniladi.

DPZ-180 ning xizmati:

DPZ-180 markali arrali jini paxta tozalash korxonalarida o'rnatilib paxta tolasini ajratish uchun, ya'ni chigitli paxtadan tolani ajratish maqsadida ishlatiladi.

Xavfli zonalari:


- elektrdvigatelni ishchi silindr bilan ulanishjoyidagimuftasi;
- arralissilindr va uning yuritmalari;
- ta'minlovchi-tozalovchi barabanlar va ularning yuritmalari;
- ararli silindrning kolasniklardan chiqib turgan qismi, ya'ni o'rnatilgan joydan tashqariga chiqib turgan qismi;
- arrali silindrning ostidagi ochiqqismlar;
- jinning quyi qismida jinlash jarayonida chiqadigan chigitni olib ketishga mo'ljallab o'rnatilgan shnek va uning yuritmalari;
- ifloslik konveyerlarining uzatmasi va uning yuritmalari.

3.2 DPZ-180 arralijininig xavfsizlik vositalari.

Arrali jin ning xavfsiz ishlashini ta'minlash maqsadida bir qancha to'siqlar bilan ta'minlangan:

I. Muqim to'siqlar:

1. Arralissilindr bilan elektr dvigatelni ulangan joyidagi muftani yopib turuvchi kuzgalmas to'siqlar -2 dona;
2. Ish kamerasining uzatmasini himoyalovchi to'siqlar – 2 dona;



3.1-rasm. DPZ-180 jinning xavfli joylari.

II. Ochiluvchi to'siqlar:

3. Xas-cho'p shnegi uzatmasini to'sib turuvchi to'siq – 2 dona;
4. Taminlovchi valiklar va xas-cho'p shnegi redutiorining uzatmalarini yopib turuvchi to'siqlar – 2 dona;
5. arralissilindr vallarini yopib turuvchi to'siqlar – 2 dona;
6. shneklarning zanjirli uzatmalarini yopib turuvchi to'siqlar – 2 dona;
7. Ta'minlovchi-tozalovchi barabanlarning uzatmasini yopib turuvchi to'siqlar – 2dona;
8. Ta'minlovchi-tozalovchi barabanlarni kuzatuvchi lyuklar – 2 dona;
9. Ulyuk shneklarining qopqoqlari – 2 dona;
10. Ishchikamera fartuklari – 2 dona;

11. Arralissilindr kameralari – 2 dona;
12. Arralissilindirning ikki yonini berkitib turuvchi ximoya tusiqlari – 2 dona;
13. Old fatukni kuzgʻalmasligini taminlovchi ilgaklar - 4 dona;
14. Jinning quyi qismida jinlash jarayonidan chiqqan chigitni olib ketish uchun oʻrnatilgan shnekning ustini berkitib turuvchi plitkalar – 2 dona.

SH. Blikorovkalovchi moslamalar:

Barcha ochiluvchi toʻsiqlar elektr dvigatellarining yurgazuvchi apparatlari bilan blokirovkalashtirilgan boʻlishi shart. Bu holatda boʻlganda uskunani ishga tushirishga imkon boʻlmaydi. Hammasi boʻlib

DPZ-180 jinida 18 ta VPK 2110U2 chekli oʻchirgich qoʻllaniladi.

III. Tormozlovchi moslama.

Arralissilindr elektr dvigatellarini tormozlovchi moslamalar -2 dona.

IV. Avariya holatida toʻxtatish:

Avariya hollarda shartli oʻchirish moslamasi OKE 122-I-U2 -2 dona.

Boʻlishi mumkin boʻlgan baxtsiz hodisalar .

1. Paxta tiqilishida uni bartaraf etishdagi jarohatlar.
2. Jinga xizmat koʻrsatish jarayonida tola va chigitni olib ketuvchi shnek va TLS dagi jaroxatlar.
3. Kiyimni ilashib qolishi natijasida jarohatlanish.

3.3 DPZ-180 arrali jiniga paxta tiqilish sabablari.


1. Ta'minlashni notekisligi ya'ni jindan oldin turgan PD ta'minlagichni bir maromda ishlamasligi.
2. Chigitli paxtani etarli darajada quritilmaganligi ya'ni jinlash jarayonidan oldin turgan uskunalarining talab darajada ishlamasligi.
3. Chigitli paxtani talab darajasida quritilmaganligi.
4. Jinning oʻzidagi nosozliklar ya'ni arra tishlarining sinishi kolasnklarning edirilib sinishi.

Jinga xizmat ko'rsatishning xavfsiz yo'llari.

1. Uskuna va jixozlarni ishga tushirish davrida va ularni to'xtatish vaqtida uni ketma-ketligiga e'tibor berib amal qilish kerak.

2. Jinning tiqilishida uni tozalash uchun amalga oshiriladigan ishlarni maxsus asboblardan foydalanish tafsia etiladi. (3.2-rasm)

3. Jindagi nosozlikni bartaraf etish paytida maxsus kiyimlardan foydalanish tafsia etiladi ya'ni engi qistiriladigan ixcham kiyimlar bilan ishlash maqsadga muvofiq.



3.2-rasm. Jin tiqilganda tozalovchi moslamalar

a - kolosnikni yuqori qismini tozalovchi moslama.

b - kolosnikni pastki qismini tozalovchi moslama.

Arralissilindrlarni uskunadan olish yoki unga o'rnatish uchun eletrotel'ferdan foydalanidali. (3.3-rasm).



3.3-rasm. Jinlashssexidagi elektrotelfer.

DPZ-180 arrali jining texnik shartlariga ko'ra 1ta mashinaga 52 ta xavfsizlik vositalari to'g'ri keladi.

Tezkor nazorat natijasida 1 ta chekli o'chirgich OKE 122-I-U2 va 2 ta oldi fartukni qo'zg'almasliginida minlovchi ilgaklar yo'qligi aniqlandi.

Shundan kelib chiqadiki DPZ-180 arrali jining xavfsizlik darajasi quydagiga teng:

$$K_{xd}=49/52=0,94$$

Demak DPZ-180 arrali jinning xavfsizlik sathi 92 % ni tashkil etdi.

4.IQTISODIY QISM

4.1 Moslamani ishlab chiqarishga tadbqiq etishdan olinadigan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash

Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy strategiyasi uzoq vaqtga mo'ljallangan maqsadlarni o'rta qo'yish bilan bir qatorda, bu maqsadlarga erishish vositalari, yo'llarini belgilashni xam o'z ichiga oladi. Bular orasida ishlab chiqarish samaradorligini to'xtovsiz oshirib boorish asosiy o'rinda turadi. Ma'lumki, xar bir tarmoq, korhona o'z ishlab chiqarish faoliyatida maksimum foyda olishga intiladi. Uning uchun ma'lum xarajatlar kiradi. Anashu foyda foyda bilan xarajatlar o'rtasidagi farq tarmoq va korhona faoliyatining samaradorlikda o'z aksini topadi. Ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligi ishlab chiqarish xarajatlarini minimum darajaga keltirishdan iborat. Mustaqillika erishilganlik, qudratli iqtisodiy va ilmiy – tehnika salohiyat yaratilayotganlik, iqtisodiy – ijtimoiy munosabatlarning takomillashayotganligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalarini birinchi o'ring qo'ydi.

Ma'lumki, ishlab chiqarishni rivojlantirishda ikki xil omil: miqdor va sifat, ekstensiv va intensiv, ya'ni kengaytiruvchi (uzaytiruvchi) va zo'r beruvchi, kuchaytiruvchi omillar harakatda bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar ishlab chiqarish soxasi kengaytirilsa, ekstensiv suratda kengaygan tarqoq ishlab chiqarish bo'ladi; agar yana xam ko'proq samara beradigan ishlab chiqarish vositalari qo'llaniladigan bo'lsa, intensiv suratda kengaygan takror ishlab chiqarish yuzaga keladi. O'zbekiston sanoatida anashu ikki yo'ldan oqilona foydalanish natijasida ishlab chiqarishning samaradorligi bosqichma – bosqich o'sib bormoqda. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yangi korhona qurishdan ko'ra, ishlab turgan korhonani rekonstruksiya qilish samarasi yuqori bo'lib, bu korhona bozor talablariga tezroq moslashadi. Yangi tehnika – tehnologiyalarni joriy etish, qo'llaniladiga tehnologiyaga o'zgarishlar kiritish kam mablag' talab qilib korhonalarga tezroq samara beradi. Samaradorlikda ishlab chiqarishning barcha natijalarini ko'rish mumkin. Ma'lumki, xar bir tarmoq, korhona, qolaversa, xar bir shaxs o'z ishlab chiqarish faoliyatida maksimum foyda

olishga intiladi. Uning uchun ma'lum harajatlar qiladi. Anashu foyda bilan harajatlar o'rtasidagi farq tarmoq va korhona faoliyatining samaradorligida o'z aksini topadi. Ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligi ishlab chiqarish harajatlarini minimum darajaga keltirishdan iborat.

Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikning aloxida o'rni mavjud. Bozor iqtisodiyoti natijalilikni, foydalilikni taqazo etadi. Tartibli bozorga asoslangan iqtisodiyotda eng kam resurs sarflab ko'p natijaga erishish zarur. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida 5 turdagi resurslar tizimi harakatda bo'lafi: a) moddiy resurslar, b) mehnat resurslari, v) moliyaviy resurslar, g) energetik resurslar, d) axborot resurslari, yana informatsion resurslar. Manashu resurslardan oqilona foydalanib, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish mumkin. Bunday faoliyat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Samaradorlik – bu foydalilik, natijalilikdir. Ma'lumki, qandaydir natija olish uchun mehnat qilish, ishlash, mahsulot ishlab chiqarish yoki hizmat ko'rsatish va ma'lum miqdorda harajat qilish kerak. Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini farqlaydilar. Samaradorlikni iqtisodiy va ijtimoiy turlarga bo'lish shartli bo'linish hisoblanadi. Moddiy ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan va mehnat xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan natijalarning xammasi iqtisodiy va ma'lum ma'noda ijtimoiy samara deb aytish mumkin.

Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarishning iqtisodiy natijasini ko'rsatadi. Masalani, mahsulot ishlab chiqarish, boshqaruv, yana texnika va texnologiyani joriy etish, mehnat sifatini oshirish va xokazolarning natijasi. Iqtisodiy samara material, mehnat, pul va boshqa resurslarni tejash tufayli erishilgan miqdor, vaqtni tejash, qurilish muddatlarini qisqartirish, mehnat sarfini tejash, ish vaqtining zoya ketishini kamaytirish, mablag'lar oborotini tezlashtirish, mahsulot yetishtirish hajmini o'stirish, ishlasr sifatini yaxshilash va boshqa natijalar bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati uning me'zoni va ko'rsatkichlar tizimida aks etadi. Ishlab chiqarishning asosiy maqsadiga erishish uchun barcha resurslardan oqilona foydalanish, tayyorlanadigan mahsulotning har bir birligiga sarflanadigan harajatlarni kamaytirish kerak bo'ladi. Demak, samarani o'lchaganda mezon sifatida jami ijtimoiy mehnatni tejash, uning unumdorligini oshirish qabul etiladi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning juda ko'p, xilma – xil omillari va asosiy yo'nalishlari mavjud. Barcha omillar uchun belgiga asosan guruhlariga bo'linishi mumin: manba bo'yicha, ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha, omillarning o'zni va amalga oshirish darajasi bo'yicha. Omillarni ishlab chiqarishni samaradorligini oshirish manbalari bo'yicha tacsiflash nimalar hisobiga mehnatni tejashga erishish mumkinligi yoki erishilganligini aniqlashga yordam beradi, bu asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: mahsulotning mehnat sig'imi, material sig'imi, fond sig'imi hamda kapital mablag' talablikni kamaytirish, tabiiy resurslardan ratsional foydalanish va vaqtni tejash.

Ishlab chiqarishning umumiy samaradorligi xarajatlar va resurslarning ayrim turlaridan foydalanish darajasini aniqlash va baholash uchun qo'llaniladi va umuman xalq ho'jaligi bo'yicha, tarmoqlar, korxonalar bo'yicha hisoblab chiqiladi.

Iqtisodiy samaradorlik rejalashtirish va tahlil etish nafaqat harajat va resurslar asosiy turlaridan foydalanish darajasini tahlil etishni o'z ichiga olishi kerak, balki uning butunlay o'zgarishini, yig'indi (integral) samaradorlikni baholashni ham o'z ichiga oladi. Manashu maqsadda iqtisodiy samaradorlikning umumlashtiruvchi, kompleks ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi va ishlab chiqishning oqibat natijalari shu ko'rsatkichlar yordamida tahlil etiladi. Bunday ko'rsatkichlar turli harajatlar va resurslarning darajasini yig'ilgan turda, har xil omillarning ta'sirini hisobga oladi.

Ishlab chiqarish – texnik vazifani hal etishning biror variantining ijtimoiy – iqtisodiy avzalligini asoslab berish, taqdim etilgan variantlardan eng

samaraligini tanlab olish maqsadida aniqlanadigan samaradorlik qiyosiy samaradorlik deb ataladi. Qiyosiy samaradorlik ikki va undan ortiq variantlarni taqqoslash va shu asosida bir variantning boshqa variantlaridan ustunligi va uning optimalligini aniqlab beradi.

Keltirilgan harajatlarni aniqlash eski texnika o'rniga yangisini yaratish va qo'llash natijasida hosil bo'ladigan iqtisodiy samarani baxolashga xalq ho'jaligi nuqtai nazaridan yondashishni taqazo etadi.

Paxta sanoatida servis xizmatini takomillashtirish uchun arrali silindirni ko'tarish jarayonlarini yengillashtirish va og'ir qo'l mehnatini mehanizatsiyalash kerak bo'ladi. Shu sababli mening bitiruv malaka ishimda "PTK" korhonasida moslamasini ishlab chiqishga tadbiq etish taklif etilmoqda. Bu moslama yuqori samara beradi, mehnat unumdorligini oshiradi, ishchilarning og'ir qo'l mehnatini osonlashtiradi va dastgohlarning to'htovsiz ishini ta'minlaydi. Moslamani ishlab chiqarishga tadbiq etish natijasida yillik iqtisodiy samaradorlik hisoblab chiqildi.

4.2. Yillik iqtisodiy samaradorlikni xisoblash.

Yillik iqtisodiy samaradorlik – bu yangi texnika, texnologiya va progressive maxsulot turlarining, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishning iqtisodiy samaradorligini tahlil etish va baholashda qo'llaniladigan muhim ko'rsatgichlardan biridir. Bu ko'rsatgich qiyos qilinadigan variantlar bo'yicha sarflangan harajatlarni to'g'risidagi ma'lumotlar asosida quyidagi formula yordamida hisoblab chiqiladi:

$$(1) \quad E = Z_1 * \frac{V_1}{V_2} + \frac{(I_1 - I_2) - E_n * (K_1 - K_2)}{R_2 + E_n} - Z_2,$$

Bu yerda E – yillik iqtisodiy samaradorlik;

Z_1 i Z_2 – bazis va taklif etilayotgan variantlar bo'yicha ketgan xarajatlarni;

$\frac{V_1}{V_2} = 1,09$ – mehnat unumdorligi o'sishini (bazis variantga nisbatan)

hisobga oluvchi koeffisient;

$R_2 + E_n$ – renovasi koeffisienti, 0,314;

K1 i K2 – kapital qo'yilmalar (ming,sum);

E_n – kapital xarajatlarning normadagi qiyosiy samaradorligi koeffitsienti (0,15). U yangi kapital qo'yilmalarning minimal darajadagi iqtisodiy samaradorligini hamda bir so'mlik kapital qo'yilma bir yilda maxsulot tannarhini necha tiyinga kamaytira olishni bildiradi.

I1 i I2 – bazis va taklif etilayotgan variantlar bo'yicha yillik eksplutatsiya xarajatlari.

4.1 – jadvalda moslamani ishlab chiqarishga tadbqiq etish natijasida yillik iqtisodiy samaradorlikni xisoblash uchun boshlang'ich ma'lumotlar keltirilgan:

4.1- jadval

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Bazis variant	Taklif etilayotgan variant
1	Moslamaning narhi	Ming so'm	81000	81000
2	Elektroenergiya sarfi	kVt/soat	56,9	56,9
3	Amortizatsiya ajratmalari, shu jumladan:	%	15	15
	- kapital ta'mirlashga	%	7,4	7,4
	- to'liq tiklashga	%	7,6	7,6
4	Dastgohlarning unumli ish vaqti	Soat	3950	3950
5	1 kVt/soat elektroenergiyasining narxi	So'm	229	229
6	Joriy ta'mirlashga ajratmalar miqdori	%	5,0	5,0
7	Transportirovka va montaj xarajatlari	%	10,0	10,0
8	Dastgoxning ish unumdorligi	Kg.arra/soat	8,6	9,4

Keyingi jadvallarda iqtisodiy samaradorlikni hisoblash uchun kerak bo'ladigan ko'rsatkichlar aniqlanadi.

Bazis va taklif etilayotgan variantlar bo'yicha kelgan xarajatlar xisobi.

4.2 - jadval

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Bazis variant	Taklif etilayotgan variant
1	Moslamaning narxi	Ming so'm	81000	81000
2	Jixozlarning transportirovka va montaj xarajatlari	10 %	8100	8100
3	Ilmiy izlanishlar va tajriba ishlariga xarajatlar	Ming so'm	-	50
4	Kapital qo'yilmalar *0.79	Ming so'm	70389	70389
5	Ishlab chiqarish fondiga kapital sarflari 3+4	Ming so'm	70389	70439
7	Keltirilgan harajatlar jami 5*0.15+1+2	Ming so'm	99658,35	99665,85

**Bazis va taklif etilayotgan variantlar bo'yicha yillik ekspluatatsiya
xarajatlari.**

4.3 – jadval

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Bazis variant	Taklif etilayotgan variant
	Jixozlarning narhi	Ming so'm	99658,35	99665,85
1	Kapital ta'mirlashga amortizatsiya ajratmalari (jixozlarning narhidan 15% transportirovka va montaj harajatlarini hisobga olgan holda)	Ming so'm	14948,75	14949,87
2	Joriy ta'mirlashga ajratmalar	Ming so'm	4982,91	4983,29

	miqdori (jixozlarning narhidan 5%)			
3	Elektroenergiya sarfi	Ming so'm	51468,89	51468,89
4	Ishchilar soni (3 – chi razryad)	Kishi	1	1
5	Ish xaqi 172240*12*2.631	Ming so'm	5437.96	5437.96
6	Ijtimoiy sug`urtaga ajratmalar (25%)	Ming so'm	1359.49	1359.49
7	Jami I1 i I2	Ming so'm	78198	78199,5

Kapital qo'yilmalar quyidagicha xisoblanadi:

Bazis variant: $K1 = 89100 * 10 / 100 = 8910$ ming so'm

Taklif etilayotgan variant: $K2 = 89150 * 10 / 100 = 8915$ ming so'm

3 – chi razryadli ishchini ish haqqi tarif setkasi bo'yicha quyidagi formula yordamida aniqlanadi: $Z_p = T_{st} * PV$,

Bu yerda: T_{st} – 3 – chi razryadli ishchini soatlik tarif stavkasi (ming so'm);

PV – yillik umumli ish vaqti (soatda)

Ma'lumotlarni formulaga qo'yib, yillik ish haqqini aniqlaymiz:

Bazis variant: $Z_p = 172240 * 12 * 2.631 / 1000 = 5437.96$ ming so'm.

Taklif etilayotgan variant: $Z_p = 172240 * 12 * 2.631 / 1000 = 5437.96$ ming so'm.

Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalarni xisoblaymiz:

Bazisniy variant: $5437.96 * 25 / 100 = 1359.49$ ming so'm.

Taklif etilayotgan variant: $5437.96 * 25 / 100 = 1359.49$ ming so'm.

Ma'lumotlarni (1) formulaga qo'yib, moslamani qo'llashdan olinadigan yillik iqtisodiy samaradorlikni hisoblab chiqamiz;

$$E=99658,35*1,09+\frac{(78198-78199,5)-0,15*(8915-8910)}{0,164+0,15}-99665,85=$$

$$=99658,35*1.09-7.16-99665,85=8954,59 \text{ ming so'm}$$

Shunday qilib, paxta sanoatida servis xizmatini takomillashtirish uchun arrali silindirni ko'tarish jarayonlarni yengillashtirish va og'ir qo'l mehnatini yengillashtirish kerak bo'ladi. Shu sababli mening bitiruv malaka ishimda korhonasida moslamasini ishlab chiqarishga tedbiq etish taklif etilmoqda. Bu moslama yuqori samara beradi, mehnat unumdorligini oshiradi, ishchilarning og'ir qo'l mehnatini osonlashtiradi va dastgohlarning to'xtovsiz ishini ta'minlaydi. Bu tadbirlar natijasida yillik iqtisodiy samaradorlik 8 million so'mdan oshadi.

XULOSALAR

1. Analitik qisimda Arrali jin turlari va arrali jin ishch organlarining tavsifi bilan tanishdim. Arrali jinlar 4 ta ZXDDM rusumli yoki 2ta 4DP-130 rusumli jinning kamerasi qo'yilgan 5DP-130 rusumli jinlar tola tozalagichlar va tashish uskunalari bilan jamlangan qatorlarga guruhlanishi, DP-130 rusumli arrali jin ZXDDM jinidan yuqori ish unumdorligiga ega bo'lib, ishch kamerasini ko'tarish va tushurish mexanizimi bilan taminlanganligi, 4DP-130arrali jin takomillashtirilgan ichki kameraga ega ekanligi o'rganib chiqildi.

2. Xom ashyo valigi va kolosnikli panjara buyicha olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili qilindi.

3. Arrali jin mashinasi kolosnikli panjarasini yig'ishda va unga servis xizmat ko'rsatishda vintlarni qotiradigan moslama tavsiya qilindi.

4. Arrali jin ish unumdorligi B.A.Lefkarch, B.I.Roganov va G.I.oldinskilar tomonidan taklif etigan ish unumdorligini aniqlovchi tengliklar yordamida aniqlanadi.

5. Servis xizmat ko'rsatishni mahsulot sifatiga ta'sirida arrali jinning texnologik parametrlari hisobi keltirildi. 4DP-130 arrali jining texnik shartlariga ko'ra bitta mashinaga 22 ta xafsizlik vositalari to'g'ri keladi. Teskor nazorat natijasida bitta shartli o'chirgich OKE 122-I-y2 va ikkita oldi fartukni qo'zg'almaslikni taminlovchi ilgaklar yo'qligi aniqlandi. Shundan kelib chiqan holda 4DP-130 rusumli arrali jinning xafsizlik darajasi $K_{xd}=49/52=0,94\%$ ga teng buldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. “2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori 2017 yil 7 fevral № PQ – 4947.
2. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. T., “O‘zbekiston”, 2017 yil.
3. Хамов М.Г. «Ремонт, монаж и наладка хлопкоочистительного оборудования» Ташкент. Укитувчи, 1990 г.
4. Davidboyev B. Ko‘tarish tashish mashinalarini loyihalash. T.: «O‘zbekiston», 2001 й.
5. Аванесова Г. А. Сервисная деятельность. Под редакцией Свириденко Сфера услуг в 4-х томах., М.: 2001 г.
6. Анурьев В.И. Справочник конструктора-машиностроителя. В 3-х т. Т. 2. - 5-е изд., перараб. и доп. - М.: Машиностроение, 2001.
7. Jabborov G.J. Chigitli paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi. Toshkent, O‘qituvchi, 1987 y.
8. Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha spravochnik. F. B. Omonovning umumiy tahriri ostida. Toshkent, “Voris nashriyot” 2008 yil.
9. A. Salimov “Paxtaga dastlabki ishlov berish”. o‘quv qo‘llanma. Toshkent. “Bilim” 2005 yil.
10. S. Gordon and Y.-L. Hsie “Cotton Science and Technology”. USA.- 2007 y.
11. Subramanian Senthilkannan Muthu «Sustainability in the Textile Industry». USA.-2016 y.
12. Najmidinov R.D. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. T.: Mehnat, 2004 yil.
13. . U.Yuldoshev va boshkalar, «Mexnatni muxofaza kilish», Toshkent, 2001.

142. K.Kudratov, T.Ganiyev, «Xayot faoliyati xavfsizligi», Toshkent, 2004.

15. A.Ortiqov. “Sanoat iqtisodiyoti” – T.: 2004 yil.

16. Internet ma’lumotlari.

<http://www.ziynet.uz>

<http://lex.uz>

<http://gov.uz>

<http://titli.uz>

ILOVALAR